



KOKSARTROZDA SON BO'G'IMI O'ZGARISHLARI

Odilxonova Malika Jahongir qizi

malikaodilxonova6@gmail.com

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi.

Coxarthrosis — son bo'g'imining degenerativ-distrofik kasalligi bo'lib, og'riq, harakat cheklanishi va nogironlikka olib keluvchi asosiy patologiyalardan biriga sabab bo'lishi mumkin.

Osteoarthritis dunyo bo'yicha 500 milliondan ortiq insonni qamrab oladi (JSST ma'lumotlariga ko'ra). 60 yoshdan oshgan aholining 10–15% ida son bo'g'imi osteoartrozi aniqlanadi. Erkaklarga nisbatan ayollarda 1,5–2 barobar ko'proq uchraydi. Koksartroz nogironlikka olib keluvchi sabablar ichida yuqori o'rinlardan birini egallaydi.

Maqsad: Koksartroz bilan og'riqan bemorlarda klinik va radiologik o'zgarishlarni tahlil qilish.

Tadqiqotda 2023–2025-yillar davomida TDTU klinikasida davolangan 60 nafar (38 ayol, 22 erkak, o'rtacha yosh 58 ± 6 yil) koksartroz tashxisi qo'yilgan bemorlar ishtirok etdi.

Bemorlar klinik tekshiruv, rentgenografiya va MRT yordamida baholandi.

COVID-19 dan so'ng trombotik asoratlar 20–30% og'ir bemorlarda kuzatilgani qayd etilgan. Postkovid davrda 20–60 yosh oralig'idagi erkaklarda son suyagi boshchasi osteonekrozi ko'paygani kuzatilmoqda.





Steroid sababli rivojlangan osteonekroz atravmatik osteonekroz holatlarining 47,4% dan ortig'ini tashkil etadi.

I–II bosqich koksartroz 40% bemorlarda,

III bosqich 45% bemorlarda,

IV bosqich 15% bemorlarda aniqlandi.

Bemorlarning 72% ida doimiy og'riq sindromi kuzatildi.

Harakat hajmining 30–50% ga kamayishi 63% bemorlarda qayd etildi.

Ayollarda kasallik uchrash tezligi 63% ni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda, Koksartroz ko'proq o'rta va keksa yoshdagi ayollarda uchrab, kasallikning III bosqichi ustunlik qiladi; erta diagnostika va radiologik nazorat kasallikning og'ir asoratlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

